



## MAMLAKATIMIZGA TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH USULLARI

Pirmatova Farangiz Ma'rufjonovna

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti o‘qituvchisi

### *Annotatsiya*

*Globalashuv sharoitida har bir mamlakat milliy iqtisodiyotining jadal o‘sishi, avvalambor, xalqaro savdo, xorijiy investitsiyalar va moliyaviy xizmatlarni yaxshilash kabi omillar natijasida yuzaga keladi. Prezidentimiz iqtisodiyotni modernizatsiyalash bo‘yicha ta’kidlaganidek, biz investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlari asosida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini modernizatsiya qilishni nazarda tutuvchi investitsion konsepsiyasini ishlab chiqishimiz va shu asosda 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi” dasturini amalga oshirishimiz kerakligini ko‘zda tutadi. Ushbu maqolada mamlakatimizga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini takomillashtirishning nazariy muammolarini, ularni hal etishning strategik yo‘nalishlari yoritib berilgan.*

**Tayanch so‘zlar:** investitsion iqtisodiyot, iqtisod, bozor iqtisodiyoti, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, raqamli texnologiyalar, innovatsion strategiya, sarmoya, investor

### **METHODS OF IMPROVING THE MECHANISM OF ATTRACTING DIRECT FOREIGN INVESTMENTS TO OUR COUNTRY**

#### *Annotation*

*In the conditions of globalization, the rapid growth of the national economy of each country is primarily a result of factors such as international trade, foreign investments, and improvement of financial services. As the President stated about the modernization of the economy, we need to develop an investment concept that provides for the modernization of all sectors of the economy based on the mechanisms of attracting investments, and on this basis implement the "Development Strategy of New Uzbekistan" program for 2022-2026. In this article, the theoretical problems of improving the mechanism of attracting foreign direct investments to our country and the strategic directions of their solution are discussed.*

**Keywords:** *investment economy, economy, market economy, foreign direct investment, digital technologies, innovation strategy, investment, investor*

## **МЕТОДЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМА ПРИВЛЕЧЕНИЯ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В НАШУ СТРАНУ**

### **Аннотация**

В условиях глобализации быстрый рост национальной экономики каждой страны является, прежде всего, результатом таких факторов, как международная торговля, иностранные инвестиции, совершенствование финансовых услуг. Как заявил Президент о модернизации экономики, нам необходимо разработать инвестиционную концепцию, предусматривающую модернизацию всех отраслей экономики на основе механизмов привлечения инвестиций, и на этой основе реализовать «Стратегию развития нового Узбекистана». Программа на 2022-2026 годы. В данной статье обсуждаются теоретические проблемы совершенствования механизма привлечения прямых иностранных инвестиций в нашу страну и стратегические направления их решения.

**Ключевые слова:** *инвестиционная экономика, экономика, рыночная экономика, прямые иностранные инвестиции, цифровые технологии, инновационная стратегия, инвестиции, инвестор.*

Globalashuv va keskin raqobatchilik kuchaygan bugungi davrda mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini uning jahon xo‘jaligi munosabatlariga faol ishtirokisiz tasavvur qilish qiyin. Xalqaro savdo-sotiq bilan bir qatorda bugungi kunda mamlakatlar ortasidagi o‘zaro samarali hamkorlik asosida amalga oshiriladigan xalqaro investitsion oqimlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘z navbatida, xorijiy investitsiyalari rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini tarkibiy qayta qurish sur‘atlarini tezlashtirish imkonini beradi. Eng muhim yo‘nalish sifatida xorijiy investitsiyalarini jalb etish asosan u yoki bu mamlakatda olib borilayotgan siyosiy va ijtimoiy iqtisodiy islohotlarga bog‘liq bo‘ladi. Xorijiy investitsiyalari ham makrodarajada ham mikrodarajada muhim rol o‘ynab, u alohida xo‘jalik yuritish subyekti va umuman, mamlakatning kelajagini aniqlaydi va iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi kuch hisoblanadi. Mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarini jalb etishga

**ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5**

katta e‘tibor qaratilishi natijasida iqtisodiyotning barqaror va yuqori sur‘atlarda o‘sishi ta‘minlanmoqda. Xorijiy investitsiyalarini respublika iqtisodiyotiga jalb etishni yanada kuchaytirish mamlakatni yangilash va modernizatsiyalash bo‘yicha belgilangan chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish manbasi va sharti sifatidagi ishbilarmonlik muhitini yaratishning zaruriy omili sanaladi. Investitsiya muhit qanchalik qulay bo‘lsa, investoring tadbirkorlik riski shunchalik past darajada bo‘ladi va bu investorlarning kirib kelishini faollashtiradi. Aksincha, investitsiya muhit noqulay bo‘lsa, risk darajasi yuqori bo‘ladi<sup>1</sup>. Bu esa, investitsiya qabul qiluvchi tomon sarf-xarajatlarining o‘sishiga olib keladi. Investitsiya muhitining holati faqat investor uchun emas, balki investitsiya qabul qiluvchi uchun ham muhimdir.

Xorijiy investitsiyalarini jalb qilishning nazariy asoslari, uni tashkil etish va rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari hamda amaliyotga oid masalalar mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan A.V.Vahobov, Sh.X.Xajibakiyev, N.G.Mo‘minov, B. Mamatov, D.Xujamkulov, O.Nurbekov, E.I.Nasirov, Sh.Sh.Asamxodjayeva, N.R.Qo‘ziyeva, Q.B.Xoshimovlar tomonidan tadqiq qilingan.<sup>1</sup>

Ayni paytda yurtimizda 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasida<sup>2</sup> makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, xorijiy investitsiyalarini, eng avvalo, xorijiy sektor va regionlardan investitsiyalarini faol jalb etish uchun qulay infratuzilmani yaratish bo‘yicha muhim vazifalar belgilangan. Shu munosabat bilan mamlakatimizda maxsus iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalarini tashkil etish, ularning samaradorligini oshirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi<sup>3</sup> to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonida Mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish va qimmatli qog‘ozlar bozorini jadal rivojlantirish bo‘yicha mamlakatimizda 250 milliard dollarlik investitsiyalarni o‘zlashtirish, jumladan 110 milliard dollar xorijiy investitsiyalar va 30 milliard dollar davlat-xususiy sheriklik doirasidagi investitsiyalarni jalb qilish muhim yo‘nalishlardan biri qilib belgilab qo‘yilgan

<sup>1</sup> Vahobob A.V., Xajibakiyev Sh.X., Mo‘minov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma. T.: Moliya 2020; B.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni//Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 10.02.2023-y., 06/23/21/0085-son.

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston-2030» strategiyasi to‘g‘risida Farmoni.12.09.2023 y., 06/23/158/0694-son; 29.12.2023 y., 06/23/214/0984-son

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5

Investitsiyalar turli shakllarda amalga oshiriladi va ularni tahlil qilish, rejalashtirish uchun alohida xususiyatlardan kelib chiqqan holda guruhlashtiriladi.

Boshqa iqtisodiy kategoriylar singari investitsiyalar ham bir qator guruhlarga bo'linishi mumkin.

#### Investitsiyalar tasnifi<sup>4</sup>

<b>№</b>	<b>Investitsiya mezonlari</b>	<b>Investitsiya turlari</b>
1	Qo'yilish obyektiga ko'ra:	- real investitsiyalar - moliyaviy investitsiyalar
2	Investitsiyada qatnashish xarakteriga ko'ra:	- to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar - portfel investitsiyalar
3	Takror ishlab chiqarish hajmining kengligiga ko'ra:	- yalpi investitsiyalar - sof investitsiyalar
4	Investitsiyalash davriga ko'ra:	- qisqa muddatli investitsiyalar - uzoq muddatli investitsiyalar
5	Mulkchilik shakliga ko'ra:	- xususiy investitsiyalar - davlat investitsiyalari - aralash investitsiyalar - xorijiy investitsiyalar
6	Hududiy joylashtirilishiga ko'ra:	- ichki investitsiyalar - tashqi investitsiyalar
7	Kapitalni ishlatish harakteriga ko'ra:	- birlamchi investitsiyalar - reinvestitsiyalar - dezinvestitsiyalar

<sup>4</sup> Zoirov L.S., Asamxodjayeva Sh.Sh., Yunusova S.B. Investitsiya., darslik// T.:”Iqtisod-Moliya”, 2019, 13 b

8	Maqsadlari va ular bilan bog'liq xatarlarga ko'ra:	- vechurli investitsiyalar - bevosita investitsiyalar - portfel investitsiyalar - annuitet investitsiyalar
9	Moliyalashtirish manbasiga ko'ra:	- markazlashgan investitsiyalar - markazlashmagan investitsiyalar.

Ichki investitsiyalar, odatda, o'z ishtirokini kengaytirish yoki mahalliy iqtisodiyotning o'ziga xos ehtiyojlarini qondirish uchun tashqi bozorlarga sarmoya kiritadigan transmilliy korporatsiyalardan keladi. Bu mahsulotga bo'lган yangi talab yoki mintaqaning jadal rivojlanishi shaklida bo'lishi mumkin.

Xorijiy investitsiyalarning keng tarqalgan turi bu to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar). Bu bir kompaniya boshqa biznesni sotib olganda yoki o'z mamlakatidan boshqa mamlakatda mavjud biznes uchun yangi operatsiyalarni ochganda sodir bo'ladi.

Davlatning investitsiya siyosati-mamlakat iqtisodiyoti va uning alohida sohalariga kapital qo'yilmalarining zarur darajasi va tuzilmasini ta'minlash, aholi, tadbirkorlar va davlat kabi takror ishlab chiqarish faoliyatining asosiy agentlarining investitsiya faolligini oshirish bo'yicha maqsad va chora-tadbirlar majmuasidir. Sodda qilib aytganda, investitsiya siyosati-bu davlatning investitsiya manbalarini topishga va ulardan samarali foydalanish sohalarini aniqlashga qaratilgan faoliyati.

Davlat investitsiya siyosatining maqsadi quyidagilardan iborat<sup>5</sup>:

- ✓ iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurishni ta'minlash;
- ✓ tadbirkorlik va xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish;
- ✓ qo'shimcha ish joylarini tashkil etish;
- ✓ turli manbalardan investitsiya resurslarini, shu xisobda chet el investitsiyalarini jalb qilish;
- ✓ investitsiya maqsadlari uchun aholi pul omonatlarini jamg'arish uchun nodavlat tuzilmalarining tashkil qilinishini rag'batlantirish;

<sup>5</sup> Sobirov A. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga investitsiyalar jalb etishni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish. I.f.n ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. T.:2009

**ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5**

- ✓ ipoteka kreditlarini rivojlantirish uchun huquqiy sharoit va kafolatlarini tashkil qilish;
- ✓ investitsiya faoliyatida lizingni rivojlantirish;
- ✓ kichik tadbirdorlikni qo'llab-quvvatlash;
- ✓ investitsiya jarayonini amalga oshirishda imtiyozlar va sanksiyalar tizimini takomillashtirish;
- ✓ vechur investitsiyalashning vujudga kelishi va rivojlanishi uchun sharoitlar yaratish.

O'zbekistonda investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirish va tartibga solish bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Bunda, eng avvalo, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi, Mehnat kodeksi, Yer kodeksi, Soliq kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi va boshqa qonun hujjalari huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'naliishlarni amalga oshirish maqsadida "Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yetta ustuvor yo'naliishdan iborat "2022 — 2026-yillarga

mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"<sup>6</sup> ishlab chiqildi. Taraqqiyot strategiyasida 2022-yil va keyingi yillarda iqtisodiyot sohasida amalga oshirish zarur bo'lgan dasturiy va maqsadli vazifalarga bag'ishlanib, maqsadlarning uchinchi yirik guruhi "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" deb nomlandi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining puxta ishlab chiqilganligi, iqtisodiy islohotlar maqsadi va vazifalari, shu bilan bir qatorda 26-maqsad: "Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko'rish" deb belgilangan.

Xususan:

---

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28 yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.02.2023-y., 06/23/21/0085-son

**ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5**

- ✓ investitsiyalardan samarali foydalanish hamda eksport hajmlarini oshirish bo'yicha, "pastdan-yuqoriga" tamoyili asosida, yangi tizimni yo'lga qo'yish;
- ✓ 2026-yilgacha Xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish strategiyasini amalga oshirish;
- ✓ davlat-xususiy sheriklik assosida energetika, transport, sog'lijni saqlash, ta'lim, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xo'jaligi va boshqa sohalarga 14 milliard AQSh dollarga teng investitsiya jalb etish;
- ✓ respublika hududlari va xorijiy mamlakatlar biznes vakillari o'rtasida tashqi iqtisodiy aloqalarni o'rnatish, jumladan Sirdaryo viloyatining Xitoy Xalq Respublikasi, Surxondaryo viloyatining Rossiya Federatsiyasi hamda Jizzax viloyatining Hindiston biznes doiralari bilan investitsiya va tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish;
- ✓ Surxondaryo viloyatida "Investorlarga ko'mak markazi", Navoiy viloyatida Navoiy kon-metallurgiya kombinati tomonidan "Biznesga ko'maklashish markazi" va Toshkent shahrida "Ilg'or loyihalar va injiniring markazi" va har bir tumanda "Innovatsiya va texnologiya markazlari" tashkil qilib, tadbirkorlarga amaliy yordam ko'rsatish;
- ✓ Toshkent shahrida har yili "Toshkent xalqaro investitsiya forumi"ni o'tkazib borish kabi vazifalar belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi investitsiya faoliyatini tartibga solish uchun barcha zarur qonunchilik bazasini yaratmoqda, jumladan:

- ✓ O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"<sup>7</sup>gi Qonuning yangi tahriri;
- ✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan va har yili qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Davlat investitsiya dasturi va boshqa shu kabilar.

Iqtisodiyotdagi investitsiyalar hajmining yildan-yilga sezilarli ravishda o'sib borishi muqarrar ravishda milliy ishlab chiqarish hajmining o'sishi orqali o'zining ijobjiy natijalarini ko'rsatishiga imkon bermoqda. Davlat tomonidan investitsiya faoliyatini rivojlantirishga berilgan ye'tibor va qo'llab-quvvatlash natijasida yalpi ichki mahsulot (YalM) hajmi va investitsiyalar miqdori o'sish sur'atlariga ega bo'ldi. Jumladan, 2019-2023 yillar oralig'ida investitsiyalar hajmi mutlaq o'sish sur'atlariga

---

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida" gi O'RQ-598-son qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son.

**ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5**

ega bo'ldi. Mazkur yillar davrida YaIM 1,58 martaga, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar esa 1,53 martaga ortgan.

Investitsiyalarning iqtisodiyot taraqqiyotidagi rolini belgilovchi ko'rsatkichlar dinamikasi<sup>8</sup>

Ko'rsatkichlar	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil
Yalpi ichki mahsulot, mlrd.so'mda	511838,1	580203,0	734632,9	766956,7	809906,3
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, mlrd.so'mda	189924,3	210195,4	244963,3	266654,4	289876,8
Qurilish ishlari, mlrd.so'mda	68854,4	37548,4	45802,7	49876,7	52876,1
Tashqi savdo aylanmasi, (mln. AQSh. dollari)	42177,8	36256	42072	45110	47408
Eksport, (mln. AQSh. dollari)	17901,7	15102	16611	17987	18976
Import, (mln. AQSh. dollari)	24276,1	21154	25461	27123	28432
Saldo, (mln. AQSh. dollari)	-6374,4	-6052	-8850	-9136	-9456

### Respublikamizda amalga oshirilgan yirik investitsiya loyihalari<sup>9</sup>

Yirik investitsiya loyihalari ishga tushirilgan vaqt	Ishga tushirilgan yirik investitsiya loyihalari soni	Ishga tushirilgan yirik investitsiya loyihalari hajmi, AQSh doll.
. 2015 yil	158 ta	7,4 mlrd.

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurdagi statistika agentligining statistik ma'lumotlari asosida tuzilgan (<https://stat.uz/uz/2-uncategorised/6692-makroko-rsatkichlar2>).

<sup>9</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yil yakunlari bo'yicha ma'ruza materiallaridan foydalanilgan holda tayेरlandi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5

.	2016 yil	164 ta	5,0 mlrd.
.	2017 yil	161 ta	2,4 mlrd.
.	2018 yil	353 ta	9,8 mlrd.
.	2019 yil	179 ta	20,5 mlrd.
.	2020 yil	43	13,9mlrd.
.	2021 yil	236	28,9mlrd.
.	2022 yil	262	38,8mlrd.
.	2023 yil	287	49,5mlrd.

Yuqoridaagi jadval ma'lumotlaridan ko'rindaniki, respublikamizda amalga oshirilgan yirik investitsiya loyihalari o'sish tendensiyasi bir tekis rivojlanmagan. Jumladan, 2015 yilda ishga tushirilgan yirik investitsiya loyihalari soni 158 tani tashkil etib, yirik investitsiya loyihalari hajmi 7,4 mlrd. AQSh dollarini, 2017 yilda esa 161 ta ishga tushirilgan yirik investitsiya loyihalari asosida 2,4 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan. Zero, 2015 yilda 2017 yilga nisbatan 3 ta yirik loyiha ishga tushirilgan. Shuningdek, 2018 yilda jami 353 ta loyiha ishga tushirilib, 9,8 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilda 179 ta yirik loyihadan 20,5 mlrd. AQSh dollarini, 2020 yilda 43 ta yirik loyihadan 13,9 mlrd. AQSh dollarini, 2021 yilda 236 ta yirik loyihadan 28,9 mlrd. AQSh dollarini, 2022 yilda 262 ta yirik loyihadan 38,8 mlrd. AQSh dollarini, 2023 yilda 287 ta yirik loyihadan 49,5 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan. tashkil etgan.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, xorijiy investitsiyalar ishtirokida yangi korxonalar sonining tobora ortib borishi va yangilari barpo etilayotgani davlatimizning bu sohaga bo'lgan katta e'tibori va ularga yaratib berayotgan qulayliklari natijasidir. Shu boisdan ham mamlakatimizga xorijiy sarmoyalarni jalb etayotgan korxonalarini iqtisodiy rag'batlantirish va ular uchun zarur sharoitlarni yaratib berish o'ta muhim

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5

masalalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham milliy iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalarni jalg etishni faollashtirishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

- inflyatsiya darajasini investitsion loyihalar qiyimat o'sishiga ta'sirini kamaytirish, shuningdek, xorijiy investitsiyalar hajmini yanada ko'paytirish;
- investitsiyalarni real ishlab chiqarish sohasiga, ya'ni xomashyoni qayta ishlovchi tarmoqlarga jalg etish;
- chet el investorlariga yanada qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida rag'batlantirish tizimini yanada takomillashtirish, xususan, soliq yukini kamaytirish va soliq tizimini investorlar uchun ham soddalashtirish;

Yuqoridagi takliflarni amaliyatda joriy etish milliy iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalarni jalg etishni yanada faollashtirishga ijobiyligi ta'sir ko'rsatadi. Ushbu holat pirovardida ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan uzlucksiz yangilab borish, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, sanoatni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni izchil davom ettirish asosida, kelgusida mamlakatimizda investitsion siyosatni to'liq amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.